

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
196 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari.....	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами.....	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Применение метода анализа иерархий для выбора оптимальной экспортной стратегии: на примере Узбекских предприятий, экспортирующих товары в россию.	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery.	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li	



KORXONALAR EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li

Mustaqil tadqiqotchi
(998 972305065)



Annotatsiya: Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Eksport faoliyatini kengaytirish nafaqat milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, balki xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishga hamda mamlakatning jahon xo'jalik tizimidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, eksport salohiyati kuchli bo'lgan korxonalar xalqaro raqobatda o'z o'rnini topib, yangi bozorlarni egallash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Maqolada korxonalar eksport salohiyatini oshirish yo'llari nazariy va amaliy jihatdan yoritilib, xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Xususan, eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish, xalqaro standartlarga moslashish va tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish kabi yo'nalishlar alohida o'rganilgan. Shu bilan birga, eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki (ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash) va tashqi (xalqaro talab, bojxona siyosati, transport-logistika imkoniyatlari) omillar chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Eksport salohiyati, barqaror iqtisodiy o'sish, diversifikatsiya, tashqi savdo, jahon xo'jaligi, ichki va tashqi omillar, xalqaro raqobat, tashqi bozorlar.

Abstract: The development of enterprises' export potential is one of the most important drivers of modern economic growth. Expanding export activities contributes not only to the sustainable development of the national economy but also to active participation in the international division of labor and strengthening the country's position in the global economic system. Enterprises with high export capacity are able to secure their place in international competition, access new markets, increase production volumes, and introduce advanced technologies.

This article analyzes both theoretical and practical aspects of enhancing enterprises' export potential while examining the experience of foreign countries. Particular attention is given to export diversification, production of high value-added goods, compliance with international standards, and the implementation of support mechanisms for foreign trade. In addition, internal factors (production efficiency, rational use of resources, adoption of innovative technologies) and external factors (international demand, customs policies, transport and logistics opportunities) influencing export performance are studied in depth.

Keywords: Export potential, sustainable economic growth, diversification, foreign trade, global economy, internal and external factors, international competition, external markets.

Аннотация: Развитие экспортного потенциала предприятий является одним из ключевых факторов современного экономического роста. Расширение экспортной деятельности способствует не только устойчивому развитию национальной экономики, но и активному участию в международном разделении труда, а также укреплению позиции страны в мировой хозяйственной системе. Предприятия с высоким экспортным потенциалом имеют возможность занять прочное место в международной конкуренции, выйти на новые рынки, увеличить объем производства и внедрить современные технологии.

В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты повышения экспортного потенциала предприятий, а также проанализирован опыт зарубежных стран. Особое внимание уделено вопросам диверсификации экспорта, производству продукции с высокой добавленной стоимостью, соответствию международным стандартам и внедрению механизмов поддержки внешней торговли. Наряду с этим, глубоко исследованы внутренние (эффективность производства, рациональное использование ресурсов, применение инновационных технологий) и внешние (международный спрос, таможенная политика, транспортно-логистические возможности) факторы, влияющие на экспортную деятельность.

Ключевые слова: Экспортный потенциал, устойчивый экономический рост, диверсификация, внешняя торговля, мировое хозяйство, внутренние и внешние факторы, международная конкуренция, внешние рынки.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida so'nggi yillarda kuzatilayotgan noaniqliklar, global xavf-xatarlar va kon'yunkturaviy o'zgarishlar sharoitida mamlakatlar uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash eng ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bunday sharoitda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti hajmini oshirib borish, iqtisodiyotning ichki resurslari va tashqi talab o'rtasida muvozanatni yaratishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan iqtisodiy istiqbollarga bag'ishlangan hisobotda ham bu masala alohida ta'kidlangan bo'lib, unda shunday deyiladi: "Eksport iqtisodiy o'sish sur'atlari va rivojlanish tendensiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil hisoblanadi. Qisqa muddatda u iqtisodiy rivojlanish uchun xorijiy valyutaning asosiy manbai bo'lib, to'lov balansidagi tafovutlarni qoplashda muhim rol o'ynasa, uzoq muddatda eksportning diversifikatsiyalashuvi yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari va uning barqarorligini ta'minlaydi" [1].

Mazkur xulosa shuni ko'rsatadiki, eksport faoliyatining samaradorligini oshirish nafaqat tashqi savdo ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, balki mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Shu bois, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, eksportni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosati va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda rivojlanishida strategik omil bo'lib xizmat qiladi.

Oxirgi yillarda AQSH, Germaniya, Ispaniya, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Malayziya, Gonkong va Tayvan kabi mamlakatlarda milliy hamda hududiy darajada eksportni rivojlantirish, uni rag'batlantirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tajribalar eksportning barqaror iqtisodiy o'sishdagi o'rni naqadar muhimligini yaqqol ko'rsatib bermoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalar eksport salohiyatini shakllantirish, uni baholash va samarali foydalanish masalalari xalqaro hamda mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jumladan, MDH olimlari – Andreeva Ye., Azmina Yu., Belokur O., Vaxromova Ye., Komarova S., Krasilnikova [2] o'z tadqiqotlarida hududlarning eksport imkoniyatlarini rivojlantirish nazariyasi, ularning ichki va tashqi iqtisodiy aloqalariga ta'sir etuvchi omillar hamda eksport salohiyatini baholashning metodik yondashuvlarini chuqur o'rgangan. Ularning ishlari hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida tashqi iqtisodiy faoliyatning o'rni va eksport imkoniyatlarining kengaytirilishi bilan bog'liq muhim xulosalarni beradi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Hududlarni barqaror rivojlantirish, mintaqalar tashqi savdosini kengaytirish va eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilmiy-uslubiy hamda amaliy jihatlari T. Ahmedov, S. A'zam, B. Valiev, S. Zokirov, S. Maxmudov, Sh. Nazarov, A. Nizamov, O. Olimjonov, A. Sodiqov, F. Egamberdiev, Sh. Ermamatov, Sh. Otaboev [3] va boshqa olimlar tomonidan chuqur tahlil etilgan. Ularning tadqiqotlari asosan hududiy ishlab chiqarishning eksportga yo'naltirilishi, raqobatbardoshlikni oshirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va eksport diversifikatsiya-sini jadallashtirish masalalariga qaratilgan.

Shuningdek, R. Rahmonov tomonidan mintaqalarning eksport salohiyatini oshirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, xalqaro talablar va sifat standartlariga moslashish masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu izlanishlar O'zbekiston iqtisodiyotida eksport salohiyatini oshirishni hududiy rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda dialektika usullari asos qilib olingan bo'lib, iqtisodiy jarayonlarning ichki bog'liqligi va o'zaro ta'sirini kompleks yondashuvda o'rganish imkonini berdi. Shu bilan birga, iqtisodiy tahlil usuli yordamida hududlarning eksport salohiyatini belgilovchi omillar, ularning o'zaro aloqasi va natijadorlik darajasi o'rganildi.

Metodologiyada, shuningdek, qiyosiy tahlil usulidan foydalanilib, O'zbekiston hududlari eksport imkoniyatlari boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirildi va o'xshash hamda farqli jihatlar aniqlab berildi. Bundan tashqari, statistik tahlil usullari orqali eksport ko'rsatkichlarining dinamikasi, diversifikatsiya darajasi, eksport qilinayotgan mahsulotlarning tarkibi va geografik yo'nalishlari o'rganildi.

Mazkur usullar tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llanilib, natijada mintaqalar eksport salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish bo'yicha nazariy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon xo'jaligi birliklarining integratsiyalashuvi va unda globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi natijasida mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga bo'lgan e'tibori ortmoqda. Natijada tashqi savdo munosabatlari ko'plab mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishining muhim omili hisoblanmoqda. Ushbu sharoitda eksport salohiyatini boshqarish masalalari turli darajalarda: korxonalar, mintaqalar va mamlakatlar miqyosida amalga oshirilmoqda.

Mikro darajada eksport salohiyatini oshirishdan asosiy maqsad iqtisodiy daromad hajmini oshirish bo'lsa, mamlakatlar darajasida ushbu yo'nalishdagi tadbirlardan quyidagi natijalar kutiladi:

- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish;
- jahon xo'jaligida faol ishtirok etish.

“Salohiyat” so'zining lug'aviy ma'nosi — biror faoliyatni amalga oshirish, biror ishni bajarish uchun zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy vositalar majmuasini anglatadi. Yana bir manbada salohiyat so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: “Oldinga qo'yilgan aniq maqsadga yetish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zahiralarning yig'indisi — salohiyat deyiladi.”

Eksport salohiyati esa so'zning yuqoridagi lug'aviy ma'nolaridan kelib chiqib, eksport qilish uchun zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy vositalar yig'indisini anglatadi deb aytishimiz mumkin.

Eksport salohiyati mamlakat iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyati bir qator sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, eksport yangi bozorlarni, yangi iste'molchilarni qamrab olish hisobidan talabning ortishiga sabab bo'ladi, ishlab chiqarishning kengayishi va yangi ish o'rinlarining tashkil etilishiga olib keladi. Ikkinchidan, eksport mahsulotlarini xorijiy valyutaga sotish evaziga milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qiymati ijobiy tomonga o'zgaradi. Uchinchidan, qator mahsulotlarga jahon bozorida yuqori narx daromadlarning oshishiga, yangi sohalar va ishlab chiqarish kuchlariga investitsiya qilish uchun fondlar shakllanishiga imkon beradi.

Bundan tashqari, jahon bozoriga ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi sifatida kirib borish sifat ko'rsatkichlariga yuqori talablar qo'yadi va modernizatsiyalash, rivojlantirishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Natijada miqdor va sifat o'zgarishlari parallel ravishda kechadi, milliy ishlab chiqarish xususiyatlari ijobiy tomonga o'zgaradi, ishlab chiqarish omillarining sifati va samaradorligi ortadi.

Yuqoridagi iqtisodiy natijalar ba'zi rivojlangan mamlakatlar uchun ustuvor ahamiyat kasb etmasligi mumkin. Shu sababli, ba'zan eksport salohiyati ushbu mamlakatlar uchun asosiy omillardan hisoblanmaydi. Lekin iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda bandlik, investitsiya va narxlar darajasidagi tafovutlarda yuqorida aytilgan holatlar kuzatiladi va bu muammolarning yechimi sifatida eksportni kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi. Natijada eksport salohiyatining iqtisodiy o'sishga erishishdagi ahamiyati va dolzarbligi ortadi.

Eksport salohiyati iqtisodiy o'sishdagi muhim o'rni sababli, ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, V.N. Shimov eksport salohiyati iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismi bo'lib, uni to'rt miqyosda o'rganish zarurligini ta'kidlagan: xalqaro, mamlakat, mintaq va alohida korxona kesimida [4].

Yu.V. Tokarev esa eksport salohiyatiga quyidagicha ta'rif beradi: “Korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi va chetga sotishi, hamda talab etilgan xizmatlarni ko'rsata olish qobiliyati eksport salohiyati deb ataladi” [5]. Ushbu ta'rifdan eksport salohiyatining muhim shartlaridan biri raqobatbardoshlik ekani ko'rinadi.

I.A. Rusakov esa eksport salohiyatiga kengroq ta'rif beradi: “Korxonaning eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni xorijiy bozorlarida sotish, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorliklarda ishtirok etishini ta'minlovchi iqtisodiy hamda moliyaviy imkoniyatlar yig'indisi eksport salohiyati deyiladi.”

Mintaqa ko'lamida eksport salohiyati atamasiga shunga o'xshash ta'rif I.V. Yelkin tomonidan berilgan bo'lib, unga ko'ra mintaqaning raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni boshqa (xorijiy) mintaqalarda sota olish imkoniyati uning eksport salohiyatini belgilab beradi. Bundan mintaqaviy eksport salohiyati majmuaviy (kompleks) xarakter kasb etishi hamda mintaqada joylashgan alohida korxonalarning eksport salohiyatlarini o'zida mujassamlashtirishi tushuniladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, eksport salohiyati yuqori darajada bo'lmagan ikki korxonaning hamkorligi eksport imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirib yuborishi mumkin. Ya'ni, ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotlarini xorijiy bozorga olib chiqish imkoniyatiga ega bo'lmayligi mumkin. Xorij bilan muntazam ishlab kelayotgan boshqa bir korxona esa aloqalar yo'lga qo'yilganiga qaramasdan, kapital taqchilligi yoki boshqa muammolar sababli o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmasligi holatlari ham uchraydi. Ana shunday ikki korxonaning hamkorligi esa umumiy eksport salohiyatini bir necha marotaba oshirishga olib keladi.

Yana bir iqtisodchi olim tomonidan eksport salohiyatiga berilgan ta'rifda uning iqtisodiy salohiyat tarkibiy qismi, ichki va tashqi omillar o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda, korxona maqsad va vazifalaridan kelib chiqib to'g'ri tashkil etilgan, mahsulotlarni yaqin va uzoq xorijda sotish imkoniyati ekani aytilgan [6].

Shu kabi holatlarni hisobga olgan holda mintaqa yoki mamlakat eksport salohiyati uning tuzilmaviy birliklari eksport salohiyatlari yig'indisidan iborat deb aytish mumkin emas. Ta'rifni yanada to'ldirib quyidagicha keltirish maqsadga muvofiqdir: mamlakat yoki mintaqaning eksport salohiyati deb uning tarkibiy qismlari, tuzilmaviy birliklarining alohida olingan eksport salohiyati majmui va birliklar o'rtasidagi hamkorlik natijalarining eksport imkoniyatlariga aytiladi.

Eksport salohiyatining shakllanishi va rivojlanishi, amalda undan foydalanish samaradorligi ko'plab omillar ta'siriga bog'liq [7]. Ushbu omillarni ichki va tashqi turlarga ajratish mumkin. Mamlakatning ichki tabiiy, iqtisodiy, siyosiy omillari ichki omillar hisoblanadi. Ba'zi ilmiy adabiyotlarda ichki omillar shartli ravishda boshqariluvchi va boshqarib bo'lmaydigan omillar guruhlariga ham ajratiladi. Boshqariluvchi omillar — korxona yoki davlat xususiyatlaridan kelib chiqib, iqtisodiy sharoitlar, ishlab chiqarish va bozorga kirib borish, sifat va narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar bo'lib, ularning ta'sir doirasi va xususiyatini o'zgartirish imkonini mavjud. Iqtisodiy siyosat misolida ko'rilsa, davlat uni mamlakat va xalq manfaatini yo'lida o'zgartirib, boshqarib turishi, lozim bo'lgan paytda eksport imkoniyatlarini qisqartirishi yoki aksincha, kengaytirishi mumkin.

Ko'lamiga ko'ra eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Korxona xususiyatlari – bunda korxonaning ichki imkoniyatlari nazarda tutiladi. Ya'ni korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati, uning aloqa-kommunikativ xususiyatlari, kadrlari, shuningdek bozor talabini qondirish imkoniyatlari va boshqalar.

Tarmoq xususiyatlari – mavjud tarmoqning iqtisodiy imkoniyatlari, infratuzilmasi, hukumat tomonidan yaratilgan imtiyozlar va boshqalar.

Bozor xususiyatlari – korxona uchun maqsadli bozorning sig'imi, undagi segmentlar ulushi, imkoniyatlari va talab xususiyatlari.

O'z izlanishlarida ko'plab iqtisodchilar korxona eksport salohiyatini oshirishdan asosiy maqsad daromadlarni ko'paytirish va xarajatlarni kamaytirish ekanini ta'kidlaganlar [8]. Bu maqsadga erishish uchun quyidagilar amalga oshirilishi mumkin:

- tashqi bozorlarga yetkazib berilayotgan tovar va xizmatlar miqdorini oshirish;
- xorijiy bozorda mavqeni yaxshilash, eksport qilinayotgan mahsulot sifatini oshirish hisobidan uning narxini ko'tarish;
- ishlab chiqarish va yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish;
- eksportga chiqariladigan tovar va xizmatlarning hayotiy siklini uzaytirish (marketing);
- ta'mirlash, butlash kabi yondosh sohalarni tashqi bozorlarda ham tashkil etish va rivojlantirish.

Yuqorida ta'kidlangan har bir chora-tadbir uchun amalga oshiriladigan ishlar umumiy natijada korxona eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu kabi tadbirlar korxonalar uchun mikro darajada ishlab chiqilgan bo'lib, xususiyan umumiy xulosa chiqarish orqali mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirishdagi maqsadlarni quyidagi tarzda izohlash mumkin: birinchidan, har bir mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi. Ikkinchidan, tovar va xizmatlarni xorijiy hamkorlarga va xorijiy bozorlarda sotish hisobidan valyuta kirib keladi va milliy pul birligi qadri barqarorligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Uchinchidan, mamlakat eksportga tovar va xizmatlar chiqarish orqali mamlakatning iqtisodiy infratuzilmalari rivojlanadi, mamlakatda modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi (ba'zi hollarda ixtisoslashuv) kuzatiladi. Natijada mamlakatda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortib boradi.

Bundan tashqari eksport salohiyatining ortishi mamlakatning investitsion jozibadorligini ham ortishiga sabab bo'ladi. Xorijiy va xalqaro investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga bo'lgan intilish ortadi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi xorijiy investorlar hisobidan moliyalashtiriladi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholining iqtisodiy faolligi ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirda Markaziy Osiyodagi qator davlatlar o'zlarini tranzit mamlakat sifatida ko'rmoqda, ammo ular birlari bilan kooperatsiyalashishi va sa'y-harakatlarini birlashtirishi lozim. Bu mablag' kiritiladigan yo'laklarni puxtalik bilan tanlash kerakligini anglatadi. Bundan tashqari, bu davlatlar nafaqat xalqaro yo'laklar, balki mahalliy transport bog'lamasi, ya'ni alohida shaharlar, korxonalar hamda mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi bog'lamalarga ham e'tibor qaratishlari kerak.

Bundan tashqari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning eksportini kengaytirish juda muhimdir. Bu bevosita mamlakat iqtisodiyotini jahon bozoriga chiqishiga, turli sohalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Mamlakatning, shuningdek sanoat korxonalarining eksport strategiyasini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.



Respublikada eksport faoliyatini rivojlantirish, xususan sanoat mahsulotlari eksport hajmini oshirish uchun birinchi navbatda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- sanoat korxonalardagi mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- sanoat turli tarmoqlarining qo'shilgan qiymati yuqori darajada bo'lgan mahsulotlar eksportini ko'paytirish va tegishli ravishda, an'anaviy eksport salmog'ini kamaytirish;
- yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish, imtiyozlar berish;
- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarni zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish;
- barqaror iqtisodiy tashqi savdo qonunchiligi, shu jumladan, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari bo'yicha me'yoriy bazani mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Economic Situation Prospects. United Nations, New York, 2020. P. 62.
2. Комарова С.Л., Абраменков М.Н. Рост экспортного потенциала региона и повышение его конкурентных позиций за счет создания кластера в ведущей отрасли промышленности //E-Management. – 2020. – №3(2). – С 22-31;
3. Otaboev SH.X. Hududni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash va ularni klasterlar tashkil etish orqali amalga oshirish (Farg'ona viloyati misolida) //Ekonomika i finansy. – 2020. – №4 (136) – pp. 148-160.
4. Андреева Е.Л., Малышева Е.В. Теоретические подходы к исследованию экспортного потенциала национальной экономики // Журнал экономической теории. – 2020. – Т. 17. – № 2. – С. 265-275;
5. Национальнауа экономика Белорууи. Потенциалы, хозяйственные комплексы, Направлениуа развития. Учебное пособие, Минск, БГЭУ. 2009
6. Токарев, Ю.В. Формирование и использование экспортного потенциала. Казань-1997
7. Швидкий В.В., Теория и практика формирования и реализации экспортного потенциала предприятий, Эл. ресурс. www.kgtu.ru/ru/magazine/2010_19/8.doc
8. Воробьева Н.В., Козел И.В. Перспективы экспортного потенциала регионов России. ФГБОУ ВПО Ставропольский государственный аграрный университет, 2013 г
9. Миролюбова Т.В., Совершенствование внешнеэкономической деятельности в условиях рыночной экономике. Екатеринбург – 2012, 20-с.
10. Аъзам С.Э. Проблемы и возможности дальнейшего расширения экспорта Республики Узбекистан // Вопросы статистики. 2018. – Т.25. – № 2. – С. 57-65;
11. Valiev B.B. O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. Iqt. fanlari doktori (DSs) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2021. – 80 b.; Назаров Ш.Х. Стратегия развития регионов. – Т.: Baktriyapress, 2017. – 144 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100